

OLIY TA'LIM MUASSASASI KADRLARINI BOSHQARISH TIZIMI

**Rajaboyev Sh.Sh- SamISI "Axborot texnologiyalari" kafedrası assistenti
Mamadaminov F.F. -Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi**

PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM OF HIGHER EDUCATION INSTITUTION

**Rajaboyev Sh.Sh- Samisi is an assistant at the "Information Technologies"
department**

**Mamadaminov F.F. -Student of Samarkand Institute of Economics and
Service**

Annotatsiya: Hozirgi davrda oliy ta'lim muassasalarida xodimlar ko'payib borayotgani va ularning mehnat faoliyatini rag'batlantirishda nohaqliklar kelib chiqmasligi uchun ularning ma'lumotlar bazasini shakllantirish va tartibga solishga qaratilgan dasturiy mahsulot loyihasi ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kadrlar bo'limi, ishchi xodimlar, ma'lumotlar bazasi, administrator.

Annotation: A software product project has been developed to shape and organize the database of higher education institutions in order to increase the number of employees and prevent unfairness in motivating their work.

Keywords: human resources department, staff, database, administrator.

Oliy ta'lim muassasida kadrlarni boshqarishning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha jahon andozalari darajasiga ko'tarish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yurtimizda keng joriy etish dolzarb uslubiy masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi davrda axborotlarning haddan tashqari ko'pligi bu axborotlarni saqlashda, qayta ishlashda, hamda har xil turdagi masalalarni yechishda hisoblash texnikasidan keng foydalanishni va axborot tizimlarini yaratishni talab qiladi. Axborot tizimi, axborotni to'plash, saqlash va qayta ishlash uchun keng imkoniyatli maqsadlarda samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy axborotlar tizimi, ma'lumotlar integratsiyasi konsepsiyasiga asoslangan katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash bilan tavsiflanadi va ko'p sonidagi foydalanuvchilarning turli xildagi talablariga javob berishi kerak bo'ladi.


Ta'lim muassasalarida kadrlar faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va ularni kasbiy faoliyatga amaliy yordam beruvchi dasturiy tizim yaratish talab etiladi. Shuning uchun, o'quv muassasasining ta'lim yo'nalishlari va bo'limlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish, hamda unga ko'ra kadrlarni yagona vaqt me'yorlari asosida avtomatik tarzda hisoblash, ma'lumotlarini tahrirlash va uni taqsimotini amalga oshirish uchun dasturiy tizim yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu dasturiy tizimni yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Oliy ta'lim muassasidagi kadrlar bazasini yaratish;
- Ma'lumotlar bazasini tahrirlash tizimini yaratish;
- Dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun ko'rsatma tayyorlash;
- Dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazish;

Kadrlar haqida to'liq ma'lumot va ular orasida o'zaro muloqotni amalga oshirish dasturiy ta'minotidan o'quv muassasa server tarmog'iga joylashtirilgan holda foydalaniladi. Bunda lokal yoki global tarmoq texnologiyasining ixtiyoriy biridan foydalanish mumkin. Dasturiy ta'minot tarmoqqa o'rnatilganda unga tarmoq manzili beriladi.

Ma'lumotlar bazasini yaratish quyidagi loyihaga asoslanadi:



1- rasm. Dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazasining o'zaro aloqadorligi


Dasturiy ta'minotdan foydalanishda har doim tashkil etilgan yagona ma'lumotlar bazasiga murojaat qilinadi. Shuning uchun barcha foydalanuvchilar bitta ma'lumotlar bazasini shakllantiradilar.

Tizimning qismlari bo'lgan ma'lumotlar bazasi va dasturiy ta'minotni alohida –alohida server kompyuterlariga o'rnatish ham mumkin. Bunda dasturning ma'lumotlar bazasiga bog'lanish qismidagi parametrlar qiymatini tahrirlash zarur, ya'ni ma'lumotlar bazasi joylashgan server-kompyuterning tarmoqdagi manzili (yoki nomi), ma'lumotlar bazasiga kirish huquqi berilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining foydalanuvchisi nomi va paroli hamda ma'lumotlar bazasini nomi ko'rsatiladi.

Dasturiy ta'minot foydalanuvchilari quyidagi turlarga bo'linadi:

- Administrator – tizim ichida barcha ma'lumotlarni nazorat qilish huquqiga ega;
- Kadrlar bo'limi – tizimdagi umumiy ma'lumotlarni tahrirlash huquqiga ega foydalanuvchilar;
- Foydalanuvchilar – tizimdagi o'ziga tegishli ma'lumotlarni ko'rish va to'ldirish;

Dasturiy ta'minotning mantiqiy tuzilmasi quyidagicha tashkil etiladi:



2- rasm. Dasturiy ta'minot mantiqiy strukturasi

Tizimda hech bir foydalanuvchi o'zga foydalanuvchilar ma'lumotlariga dahl qila olmaydilar va o'ziga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni tahrirlash imkoniga ega bo'lmaydilar. Umumiy ma'lumotlarini barcha foydalanuvchilar ko'rish huquqiga ega.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati.

1. Rajaboyev, S. (2023). Ta'limni axborotlashtirish sharoitida web-dizayn kursini flipgrid dasturining imkoniyatlaridan foydalanish.
2. Shodiyevich, Rajaboev Shahboz, Rajaboyev Shohzod Shodiyevich, and Usmonov Sunnatillo Berdiqu o'g'li. "ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES 4.6 (2023): 80-84.
3. Shodiyevich R. S., Shodiyevich R. S., Berdiqu o'g'li U. S. ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 80-84.

4. Ulugbekovich K. D. et al. Trends of Fast Development of the Service Sector in Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 35. – С. 554-563.
5. Shakhboz R. USING MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING COMPUTER SCIENCE BASED ON DISTANCE EDUCATION //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – Т. 3. – №. 7.
6. Shodiyevich, R. S., Shodiyevich, R. S., & o'g'li U. S. B. (2023). ACCOUNTING ISSUES IN THE DIGITAL ECONOMY. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 4(6), 80-84. Retrieved from <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/475>
7. To'lqinjanovna T. N., Shodiyevich R. S. Word Formation by Affixation //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 217-222.
8. Shahboz R., Sayidaxon T., Sheroz R. IQTISODIY FANLARNI O 'QITISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 518-520.
9. Shodiyevich R. S., Berdiquil o'g'li U. S., Shodiyevich R. S. The Process of Managing the Flow of Information, in the Example of Accounting //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 99-104.
10. To'lqinjanovna T. N., Shodiyevich R. S. Word Formation by Affixation //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 217-222.
11. Ражабоев Ш. Ш. Экологическое образование в целях устойчивого развития территорий.–2022 //Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch. – 2022.
12. Rajaboyev S. Экологическое образование в целях устойчивого развития территорий //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
13. Rajaboev S. S. Technologies of Using Multimedia Tools in Teaching Economic Sciences //Spanish Journal of Innovation and Integrity.
14. Ражабоев Ш. Ш. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ //ББК 65.29 я43 Т384. – 2022. – С. 54.